

---

## HAMKORLIK

Bugungi karantin sharoitida ehtiyojmand oilalar holidan xabar olish, ularga yordam ko'rsatish eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, Qo'shtepa tumani prokurori M. Shomurodov hamda xalq deputatlari tuman Kengashi deputati D. Mirzayevalar hamkorlikda 2-sektor hududidagi aholi turmush tarzi, ularni o'ylantirayotgan masalalarni o'rganib, hal etishga kirishdilar.

Ular karantin tufayli ishsiz qolgan fuqarolarning oilaviy sharoitlarini o'rgandilar. Kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni qiynayotgan muammolarni ham o'rganib, amaliy yordam berish choralarini ko'rdilar.



2020-05-16 12:14:32